| <b>Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich</b>                                                                                                  |     |
| Changes in employee benefits and human resource management in accounting system of the Republic of Uzbekistan .....                   | 535 |
| <b>Ravshanbekov Lazizbek Tolibjon o'g'li, Toshpulatova Munisabonu</b>                                                                 |     |



|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'molini boshqaruvining raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari..... | 541 |
| <b>Karimov Anvarjon Muqumjonovich</b>                                                                                                          |     |
| Теоретические аспекты налогообложения доходов физических лиц на основе всеобщего декларирования .....                                          | 547 |
| <b>Усманова Мухлиса Сагдуллаевна</b>                                                                                                           |     |
| Bank tizimini raqamlashtirish va uning bank barqarorligiga ta'siri.....                                                                        | 555 |
| <b>Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich</b>                                                                                                    |     |
| Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni .....                                            | 560 |
| <b>Saparov Ismat Chorshanbiyevich</b>                                                                                                          |     |
| Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari .....                                                                        | 565 |
| <b>Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich</b>                                                                           |     |
| Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия .....                               | 570 |
| <b>А.И. Лесников, Д.В. Мамаева</b>                                                                                                             |     |
| Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику .....                                                                                      | 580 |
| <b>Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи</b>                                                                                   |     |
| Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish .....                             | 586 |
| <b>Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva Maxliyoxon Xayrullayevna</b>                                                                |     |
| Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari .....                                                      | 591 |
| <b>Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| The main directions for improving innovative activities in agriculture .....                                                                   | 598 |
| <b>Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna</b>                                                                                                        |     |
| Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi .....                                                              | 605 |
| <b>Xaydarov Sardor Komil o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari .....                                                                                          | 610 |
| <b>Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna</b>                                                                                                   |     |
| Yashil iqtisodiyot: muammo va yechimlar .....                                                                                                  | 615 |
| <b>Boymatov Xoliyor Qurbonovich</b>                                                                                                            |     |
| Issues of using foreign loans in the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan .....                                   | 621 |
| <b>Alimov Ilhomjon Ikromovich</b>                                                                                                              |     |
| Проблемы и резервы развития пищевой промышленности в экспортном направлении.....                                                               | 628 |
| <b>Ўролова Севара Бехзод кизи</b>                                                                                                              |     |
| Оценка степени риска инновационной деятельности .....                                                                                          | 634 |
| <b>Алиева Эльнара Аметовна</b>                                                                                                                 |     |
| Yashil innovatsiyalar, ularning turlari va omillari.....                                                                                       | 638 |
| <b>Maxkamova Sayyora Shokirovna</b>                                                                                                            |     |
| Qishloq xo'jaligida transport tizimidan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....                                                         | 641 |
| <b>Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi</b>                                                                                                          |     |
| Soliq ma'murchiligida nazorat funksiyasi va unda kameral soliq tekshiruvi hamda takomillashtirish yo'llari.....                                | 648 |
| <b>Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li</b>                                                                                                  |     |
| Sanoat korxonalarida xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlash metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari .....                         | 653 |
| <b>Safarov Javohir Ismoilovich</b>                                                                                                             |     |
| Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish masalalari .....                           | 659 |
| <b>G'aniyev Zafar Usanovich</b>                                                                                                                |     |
| Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi faoliyati.....                                                                                   | 666 |
| <b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Tibbiyot muassasalarining moliyaviy ta'minoti va resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir qiluvchi omillar .....                         | 670 |
| <b>Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich</b>                                                                                                     |     |
| Tourism finance for sustainability: investing in green futures .....                                                                           | 674 |
| <b>Tashpulatov Sadriddin Sayfulloyevich</b>                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ta'lim jarayonlarini boshqarishda mobil texnologiyalar .....                                                                                | 681 |
| Esonova Mohiraxon Sodiqjon qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Sherzodbek Nabiye Nurmuhammad o'g'li                                      |     |
| Banklarda risklarni nazorat qilishning amaliyoti .....                                                                                      | 686 |
| Jumanazarov Muzaffar Jumanazar o'g'li                                                                                                       |     |
| Налоговые реформы в Узбекистане: вызовы, достижения и перспективы .....                                                                     | 692 |
| Садиков Искандар Гайратович, Буранова Лола Вахобовна                                                                                        |     |
| Turizm xizmatlari samaradorligini baholash usullari va vositalari tahlili .....                                                             | 704 |
| Jiyanov Uktam Panjiyevich                                                                                                                   |     |
| Korxona va tashkilotlarda xodimlarni boshqarish strategiyasi .....                                                                          | 712 |
| Raxmonova Feruza Musakulovna                                                                                                                |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlashning ahamiyati .....                                          | 716 |
| Dusmaxamedov Abduljalil Abdusabirovich                                                                                                      |     |
| Davlat korxonasini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirishning foydali jihatlari .....                                                             | 720 |
| Z.D. Sanjarov                                                                                                                               |     |
| The role and main types of agricultural tourism in Uzbekistan .....                                                                         | 724 |
| M.Xolmuratova, G.N.Tojiyeva                                                                                                                 |     |
| Цифровые технологии как драйвер повышения эффективности банковского маркетинга .....                                                        | 727 |
| Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи                                                                              |     |
| Потребительская стоимость товаров в условиях экономики Узбекистана .....                                                                    | 735 |
| Мусаева Шоира Азимовна                                                                                                                      |     |
| Valyuta risklarini boshqarishda metching siyosatining ahamiyatini oshirish .....                                                            | 739 |
| Yahyayev Ziyodilla Lutfullayevich                                                                                                           |     |
| Yangi o'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati .....                                                           | 744 |
| Azimova Shoxista Salohiddinovna                                                                                                             |     |
| Improving the methodology for assessing the financial stability of banks .....                                                              | 750 |
| Sharipova N.H.                                                                                                                              |     |
| Инструменты стратегического планирования и прогнозирования в управлении ООО "МТЕ TECHNIK": оценка и повышение финансовой стабильности ..... | 757 |
| Нишоновна Муниса Одилжон кизи                                                                                                               |     |
| Актуальные вопросы налоговой политики .....                                                                                                 | 763 |
| Бердыева Угулой Абдурахмоновна                                                                                                              |     |
| Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi .....                                                         | 768 |
| Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li                                                                                                             |     |
| Jizzax viloyatida ekologik, rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash va uni prognozlashtirish .....   | 773 |
| G'apparov Azim Qayumovich                                                                                                                   |     |
| Qashqadaryo viloyatida ekologik va yashil texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar .....                                             | 781 |
| Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li, Buriyev Shaxbos Baxtiyorovich                                                                          |     |
| Biznes subyektlari auditida soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usulini qo'llash xususiyatlari .....                             | 786 |
| Tajekeev Ziyatdin Kobeysinovich                                                                                                             |     |
| Biznes jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari .....                                                                              | 791 |
| Mullajonova (Matchanova) Shaxsanam Taxiroyva                                                                                                |     |
| Raqamli xizmatlar bozori: elektron tijorat orqali xizmat ko'rsatishning yangi bosqichlari .....                                             | 796 |
| Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali Qizi                                                                                                     |     |
| "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati va uni barqarorlashtirishning ahamiyati .....                                                      | 800 |
| Musurmankulova Gulchehra Isabekovna                                                                                                         |     |
| Ekologik turizm nuqtai nazaridan turizm marketingining usullari va asosiy vositalarining xususiyatlari .....                                | 806 |
| Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna                                                                                                            |     |
| O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning o'rni va rivojlanish istiqbollari .....                                                               | 815 |
| Qosimova Fazilat, Kalandarov Ravshan                                                                                                        |     |



# O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**Qosimova Fazilat**

TDIU "Buxgalteriya hisobi" fakulteti, 1-kurs talabasi.

ORCID: 0009-0002-4156-3742

**Ilmiy rahbar:**

**Kalandarov Ravshan**

TDIU dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sohasining O'zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni, ushbu sohani rivojlantirish masalalari, moliyaviy mablag'larni kengaytirish imkoniyatlari va shunga o'xshash masalalar keltirilgan. Bundan tashqari mamlakatlar kesimida xalqaro turizm oqimlari to'g'risida ma'lumotlar, turistlar uchun yetarli sharoitlar yaratish, turizm sohasi bo'yicha qabul qilingan qonunlar va "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyati tahlil etilgan hamda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, davlat dasturi, moliya, turist, uyushgan turizm, investitsiya, turizm infratuzilmasi, ekzotik turizm, rekreatsion turizm.

**Abstract:** This article discusses the role of tourism in Uzbekistan's national economy, issues related to the development of this sector, opportunities for expanding financial resources, and similar matters. Additionally, it provides information on international tourism flows across countries, the creation of sufficient conditions for tourists, the laws adopted in the tourism sector, and the activities of the national company "Uzbektourism". Recommendations and suggestions for the development of this sector are also presented.

**Key words:** tourism, government program, finance, tourist, organized tourism, investment, tourism infrastructure, exotic tourism, recreational tourism.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются место туризма в национальной экономике Узбекистана, вопросы развития этой сферы, возможности расширения финансовых ресурсов и аналогичные проблемы. Также представлены данные о международных туристических потоках по странам, создание необходимых условий для туристов, принятые законы в сфере туризма и деятельность национальной компании "Узбектуризм". Исходя из анализа данных приведены предложения и рекомендации по развитию этой отрасли.

**Ключевые слова:** туризм, государственная программа, финансы, турист, организованный туризм, инвестиции, туристическая инфраструктура, экзотический туризм, рекреационный туризм.

## KIRISH

Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadli sohalardan biri hisoblanadi. Turizm davlatning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, yangi ish o'rinlarini yaratish va valyuta oqimini ta'minlaydi. Turizm sohasi rivojlanishi avtomobil, havo va temir yo'llar tizimi, mehmonxonalar va boshqa infratuzilmani yanada yaxshilanishi bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari madaniyatni tarqatish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish va jamiyat rivoji uchun katta hissa qo'shadi. Jahon tajribasidan ko'rish mumkinki, qaysi davlat faol turizm siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hamda rivojlanishiga erishgan.

Mamlakatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq faol turizm muhitini yaratishga qaratilgan zamonaviy dasturlar va loyihalar amalga oshirib kelinmoqda, iqtisodiy-moliyaviy imtiyoz va preferensiyalar tizimi joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu sohaning milliy iqtisodiyotdagi o'rniga quyidagicha baho bergan: "Turizm - bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o'rinlari va kambag'allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratib, ko'proq sayyohlarni jalb etish kerak"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 19-sentabrdagi mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi nutqi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotdagi o'rnini tadqiq etish bo'yicha ilmiy markazlar, xalqaro va milliy institutlar, yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

Rossiyalik mutaxassis Y.V.Kolotova[4] tarixiy-madaniy turizmni "mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf-odatlar, uy xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflaydi.

Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg[5] tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi.

G.Karpov va L.Xorovalar[6] esa tarixiy va madaniy turizmni "kishilarning yangi axborot, tajriba va taassurotlarga ega bo'lish uchun madaniy diqqatga sazovor joylar, muzeylar va tarixiy joylar, san'at galereyalari, musiqa va drama teatrlari, konsert maydonchalari, ijrochilik san'ati, klassik qadriyatlar hamda tarixiy merosni aks ettiruvchi mahalliy aholining an'anaviy dam olish hududlari, innovatsion badiiy ijodiyot uylariga tashrif buyurishi" deb hisoblaydi.

O'zbekistonlik tadqiqotchi olimlaridan I.To'xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro'ziyev, O.Xamidov, N.Ibadullayev, F.Azizto'yeva, B.Mamatov[7] va boshqa o'z ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishga doir ko'plab ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishgan, biroq tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Tadqiqotchi Sh.Ro'ziyev[8] tarixiy-madaniy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda yaratiladigan konsepsiyalar, metodlar va turistik faoliyat subyektlarining o'zaro integratsiyasini amalga oshiruvchi indikativ boshqaruv metodikasini yoritib bergan.

Iqtisodchi olim O.H.Xamidovning e'tirof etishicha "Turizm murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy obyektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilaydi".

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida ilmiy yondashuv, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan bo'lib, keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yillar kesimida qiyosiy tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolaning tahlil qismida nafaqat mamlakatimizdagi turizm sohasi bo'yicha so'nggi ko'rsatkichlar balki, xorijiy manbalar ma'lumotlaridan ham tahlil jarayonida foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm - turistlar, xorijiy sayyohlar yordamida mamlakat moliyaviy mablag'larini kengaytirishdir. Turizm ma'daniy, tarixiy va tabiiy boyliklarni saqlash hamda oqilona foydalanishga katta hissa qo'shadi.

O'zbekistonda turizm sohasida rahbarlikni 1992-yilda tuzilgan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi olib boradi. Uning asosiy vazifasi chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: klassik yo'nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz). Bu yo'nalish eng qadimgi yodgorliklar va boshqa tarixiy-madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq. Ekologik turizm yo'nalishi alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar bo'lib, ular sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylar bilan bog'liq. Bu hududlarga Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga Chimyon va To'rtko'l kabi tog' chang'i sportini rivojlantirish mumkin bo'lgan bir qancha tog' maskanlari mavjud. Tog'larda shifobaxsh giyohlarning ko'pligi turli xil ekologik turlarni tashkil etishga imkon beradi. Bu esa ko'plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi.

Hozirgi kunda turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi va boshqa imtiyozlar salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini bermoqda.

Turistlarni ko'proq jalb qilishning muhim omillari bilan quyida tanishamiz:

davlatlararo bo'lib o'tadigan turli seminarlarda qatnashish, ular bilan mamlakatimiz istiqboli uchun foydali bo'ladigan shartnomalar tuzish;

xalqaro aloqalar o'rnatish, mamlakatlarni birgalikda rivojlantirish haqida takliflar bildirishimiz ya'ni chet ellik turistlarda O'zbekiston haqida tasavvur uyg'otish maqsadga muvofiq bo'ladi;

madaniyat va an'analarning taqdimoti - mahalliy madaniyat, an'ana va festivallarni tashkil qilib, turistlarga qiziqarli tajriba taqdim etish.



Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 19-sentyabr kuni mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan tashkil etilgan videoselektorda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi belgilab olindi. Jumladan, sayyohlarga viza berishni yengillashtirish, aeroportlarda navbatlar va ortiqcha tekshirishlarga barham berish maqsadida yashil yo'laklar tashkil etish, valyuta ayirboshlash tizimini liberallashtirish lozimligi belgilab olindi.

Turizm korxonalari uchun ijtimoiy soliq va aylanma soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi, yer solig'i va mol-mulk soliq stavkalari 90 foizga kamaytirildi. Xususan, xorijiy turistlarni yurtimizga jalb qilish uchun turizm tashkilotlarini aylanma mablag' bilan ta'minlash maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 50 million AQSh dollari qiymatida alohida kredit liniyasi ochilmoqda. Bu kreditlar milliy valyutada yillik 17 foiz stavkada, 2 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilga ajratiladi. Salohiyati yuqori bo'lgan joylarda master-rejalar asosida turizm maskanlari barpo etiladi. Bunday hududlar infratuzilmasini yaxshilash uchun joriy yilda respublika budjetidan 100 milliard so'm yo'naltiriladi. Shuningdek, ularning har biriga 50 million dollar miqdorida investitsiya jalb qilinadi.

2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish va shunga o'xshash boshqa chora tadbirlar ko'rilgan (1-jadval).

1-jadval. 2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar soni<sup>2</sup>.

|   | Tashrif buyuruvchilar           | 2019      | 2020      | 2021      | 2022      | 2023      | 2024       |
|---|---------------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|------------|
| 1 | Qo'shni davlatlardan (%)        | 85,5      | 88,4      | 72,2      | 83,4      | 80,7      | 79,4       |
| 2 | Qolgan MDX davlatlaridan (%)    | 7,3       | 6         | 19,8      | 11,6      | 11,5      | 10,6       |
| 3 | Uzoq xorijiy davlatlardan (%)   | 7,2       | 5,6       | 8         | 5         | 7,8       | 10         |
| 4 | Jami tashrif buyuruvchilar soni | 6,748,500 | 1,504,000 | 1,881,345 | 5,232,800 | 6,626,000 | 8,2 (mln.) |

Yuqoridagi 1-jadvalda 2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar soni va qaysi davlatdan qancha turist kelganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

“O'zbekturizm” qo'mitasining xabar berishicha 2019-yil davomida 6 748 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan. Ularning 51,3 foizini 31-35 yoshdagi kishilar tashkil qilgan holda eng ko'p sayyoh Buxoro, Toshkent shahri, Samarqand va Xorazm viloyatlariga tashrif buyurgan.

2021-yil davomida O'zbekistonga 1 881 345 nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurib, turistik xizmatlar eksporti 422,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021-yilda yangi turizm mahsuloti targ'iboti uchun 58 nafar turoperator va gidga 5100 mln. so'm miqdorda grant ajratilgan. O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash bo'yicha 52 nafar tadbirkorga 451,6 mln. so'm miqdoridagi subsidiya mablag'lari ajratilgan.

Shuningdek, statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 5,2 mln. nafar O'zbekiston fuqarolari turistik maqsadlarda xorijga safar qilgan. Ushbu ko'rsatkichni 2021-yilning mos davriga nisbatan taqqoslaganda 2,9 mln nafarga yoki 2,4 martaga oshganini kuzatish mumkin. O'zbekistonliklar 2022-yilda turistik maqsadlarda eng ko'p Qirg'izistonga (2,4 mln.), Qozog'iston (1 mln.) va Tojikistonga (785 ming) safar qilgan. 2022-yilda eng ko'p Qirg'iziston mamlakatidan turistlar kelishgan.

2023-yilda 6,6 mln. nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Statistika agentligi xabariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,4 mln. nafarga yoki 26,6 foizga oshgan. O'zbekistonga 2023-yilda eng ko'p quyidagi davlatlarning fuqarolari turistik maqsadda tashrif buyurgan:

1. Tojikiston – 2 155,2 ming nafar
2. Qirg'iziston – 1 757,1 ming nafar
3. Qozog'iston – 1 333,3 ming nafar
4. Rossiya Federatsiyasi – 714,3 ming nafar.

O'zbekistonga 2024-yilda jami 8,2 mln. nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. Shundan: ayollar – 4 077,1 ming nafar, erkaklar – 4 104,3 ming nafarni tashkil etadi. Hatto shu yilning o'zida AQShdan O'zbekistonga 30 ming 672 nafar turist tashrif buyurgan. 2024-yilning boshidan turistlar oqimi har oy salmoqli oshib bormoqda. Yevropa ittifoqi davlatlaridan 2024-yilning yanvar oyida 4 601 nafar fuqaro turistik

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 19-sentabrdagi mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi nutqi.



maqsadda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Yanvar-mart oylarida jami 1 mln. 519,3 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda kelgan.

Shuningdek turizm sohasini rivojlantirish uchun yoz kunlarida akvapark va basseynlarga talab oshishi tabiiyligi, lekin turistlar uchun "magnit" bo'ladigan birorta zamonaviy akvapark yo'qligi hisobga olgan holda akvapark va basseynlar tashkil etish bo'yicha loyihalarni ko'paytirish, ko'llar bo'yicha master reja ishlab chiqib, atrofini lotlarga bo'lib, tadbirkorlarga taklif etish maqsadga muvofiq. Eng muhim masalalardan biri – sayyohlar mahalliy reyslarga samolyot va poyezd chipta olishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida barcha qatnovlar haqida ma'lumot va chipta olish imkonini beradigan yagona onlayn platformani ishga tushirish, qatnovlar intensivligini oshirish hamda ularning jadvalini maqbullashtirish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni aytishimiz mumkinki mamlakatimizga turistlarni faol jalb qilish borasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan yana eng muhimlaridan biri ushbu sohasidagi tadbirkorlar uchun qator preferensiyalar joriy etilmoqda. Ular orasida avtobus va mikroavtobuslarni bojxona bojidan ozod etish, turoperator va hunarmandlarning xalqaro yarmakalardagi xarajatining 50 foizini qoplab berish, xorijiy mehmonlar ishtirokida biznes tadbirlar tashkil qilgan tadbirkorlarning foyda solig'i 50 foizga kamaytirish kabi choralar shular jumlasidandir.

Turizm milliy iqtisodiyotda valyuta tushumining o'sishi, eksport tarkibining takomillashuvi va diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turizm sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan, Saudiya Arabistoni tajribasini umumlashtirish xalqaro turizmni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi:

turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarni jalb qilish bo'yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

yangi mehmonxonalar, kempinglar, motellar qurish va mavjudlarini ta'mirlash hamda zamonaviylashtirish hisobiga turizmning xalqaro talablarga javob bera oladigan moddiy-texnika bazasi va zamonaviy xalqaro turizm infratuzilmasini barpo etish va ulardan samarali foydalanish;

aeroportlarda, temiryo'l vokzallarida, avtobus stansiyalarida xalqaro terminallar qurish, ularni ta'mirlash va kengaytirish, shuningdek, barcha turistlarni qabul qilish markazlarida zamonaviy kommunikatsiya tizimlarini barpo etish;

xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, suvenirlar va turistlar tomonidan talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

respublikamizning tabiiy, iqtisodiy va tarixiy salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning turli shakllari - ekskursiya va o'rganish turizmi, arxeologik turizm, rekreatsion turizm, sarguzasht turizmi, ekzotik turizm, ekologik turizm, konferens-turlar, diniy turizm, etnik va nostalgiya turizmini rivojlantirish.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida quyidagi yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish lozim.

Milliy qadriyatlar asosida O'zbek brendini ishlab chiqish va uni dunyo mamlakatlariga tanitish.

Marketing va reklama - mamlakatni xalqaro miqyosda tanitish uchun samarali marketing strategiyalari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Infratuzilmani yaxshilash - yo'llar, transport tizimi, mehmonxonalar va boshqa xizmatlar sifatini oshirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 16-iyul kuni turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ko'rib chiqilgan takliflari <https://president.uz/oz/lists/view/7405>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 19-sentyabr kuni "Turizm sohasida ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo'yicha vazifalarini ko'rsatib o'tish" mavzusidagi nutqlari <https://president.uz/oz/lists/view/5552>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>
4. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсосведение: Учеб. пособие. – М.:PMATS.
5. Richards. G. Cultural tourism in Europe. CABI, Wallingford. (1996).
6. Карпов Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью. СПб, 2011.
7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy jurnallari va nashrlari.
8. Ro'ziyev Sh. "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi" Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru>.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---